



**ZAMONAVIY O‘ZBEK OILALARIDA AVLODLARARO  
MUNOSABATLAR**

**S.D.Narkulov**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri

**S.D.Oripova**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti talabasi

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyati, oila instituti va avlodlararo munosabatlarni mustahkamlashga ta’siri aksiomadidir. Insoniyat taraqqiyoti shunday bir tarixiy bosqichga qadam qo‘ydiki, endi hech bir xalq, millat, davlat boshqa xalq, millat va davlatlar bilan keng integratsiyaga kirishmay, umumjahon taraqqiyotiga o‘zining hissasini qo‘shmay, global muammolarni hal etishda qatnashmay hamda umuminsoniy normalardan, boylıklardan, yutuqlardan, qadriyatlardan foydalanmay rivojlana olmaydi.

O‘zbek oilasidagi avlodlararo munosabatlardagi o‘zak quyidagi belgilarda namoyon bo‘ladi:

- oila butunligini, yaxlitligini asrash;
- reproduktiv va demografik an’analarga rioya etish;
- oilada shakllangan ierarxiyaga rioya etish;
- ijtimoiy makonda oila mavqeini mustahkamlash;
- differentsiatsiya (bo‘linish) va konfederatsiya (birlashish)

funksiyalarini bajarish;

- avlodlararo munosabatlarni etnoan’ana sifatida qadrlash.

O‘zbek xalqida oriyat, o‘z obro‘sini saqlashga, to‘kmaslikka intilish kuchli. O‘zbek biror narsaga qo‘l urishidan oldin yoki oilasiga taalluqli biror xatti-harakatni sodir etishidan oldin uning o‘zi yoki oilasi obro‘sigacha qanchalik ta’sir



etishini ko‘z oldiga keltiradi. Agar shu xatti-harakat o‘zining yoki oilasining obro‘cini to‘ksa, unga putur yetkazsa, u shu xatti-harakatdan, hatto u unga katta zarar yetkazsa ham, voz kechadi. Bu o‘rinda o‘zbek xalqining o‘z an‘analariga, tarixiy madaniy tajribalariga sodiqligi ko‘zga tashlanadi. Obro‘ni saqlash oila instituti butunligini saqlash demakdir. Obro‘ga putur yetgan joyda oila butunligini saqlash qiyin. Oila butunligi deganda avvalo oila yadrosi bo‘lgan ota-ona munosabatlari, keyin ular atrofidagi farzandlar, nevaralar va chevaralar munosabatlaridagi yakdillik, ular o‘rtasidagi ahillik, ittifoq nazarda tutiladi. Avvalo ota-ona (er-xotin) o‘rtasida ahillik, inoqlik bo‘lishi darkor. Bu ahillik, inoqlik buzilgan joyda oila butunligi haqida so‘z yuritib bo‘lmaydi.

O‘zbek xalqi an‘analariga ko‘ra, oila obro‘si hayo, soflik, iffat va sadoqat orqali ham asraladi. Agar oila a‘zolari ushbu umuminsoniy fazilatlarga ega bo‘lmasa yoki ularni o‘z xatti-harakatlarida unutsa, munosabatlar keskinlashishi turgan gap. Professor A.Hayitmetov yozadi: “Islomda, tasavvufda, qolaversa, Sharq mumtoz adabiyotida “hayo” masalasi va tushunchasiga katta o‘rin va ma‘no berilgan. Hayoli bo‘lish insoniylikning, musulmonchilikning, odob axloqning tamal toshlaridan biri hisoblangan. Navoiy “Nazmul javohir” asaridagi ruboiylarning birida hayoni, hayoli bo‘lishni quyidagicha ulug‘laydi:

Avji sharaf uzra oftob o‘ldi hayo,

Bo‘stoni sadoqatqa sahob o‘ldi hayo.

Mazmun hasoilg‘a hijob o‘ldi hayo,

El aynig‘a go‘yoki niqob o‘ldi hayo.

“Hayo” hozirgi tushunchada yuksak madaniyatlilikni, kamtarlikni, bosiqlikni anglatadi. Navoiycha, hayo inson obro‘ e‘tiborini oftobdek yoritib,



go‘zallashtirib turadi. Hayo saodat bog‘ini oftob taftidan saqlovchi bulutdir. Shu bilan birga hayo insondagi yomon xislatlarni yashirguvchi parda, odamning ko‘zini to‘siq turuvchi niqobdir... Demak, hayoli bo‘lish har qanday odam uchun shohga ham, gadoga ham, olinga ham, oddiy ishchiga ham zarur bir fazilatdir”<sup>1</sup>.

Farzand ko‘rish, xalq, millat bo‘lib yashashning shartidir. O‘zbek xalqiga xos qadriyatlardan biri bolajonlikdir. Reproktivlik, demografik barqarorlikni ta‘minlash, hayot ma‘nosini farzandlar ko‘rib, ularni yetishtirishda ko‘rish o‘zbek oilasining oliyjanob an‘analari qatoriga kiradigan fazilat hisoblanadi. O‘zbek xalq dostonlari, ertaklari va maqollarida farzandlilik ideal hayot tarzida ulug‘lanadi. Masalan, “Alpomish” dostonidagi Boybo‘ri bilan Boysari o‘rtasidagi nizoda befarzandligi uchun aka (Boybo‘ri) ukasi (Boysari)dan zakot talab etishi sabab bo‘ladi. “Sir shundaki, Boybo‘rining ko‘chib ketganini akasi qo‘rqoqlik, sotqinlik, o‘jarlik, hatto mavjud tartiblarga, an‘analarga bo‘ysunmaslik deb biladi. Aslida ham shunday edi. Akasining zakot talab etishini zo‘ravonlik deb qabul qilgan Boysari zakotning nafaqat ijtimoiy siyosiy jihatlari, shu bilan birga akasining adolatparvarligi ramzi, o‘zbekona urf-odatlariga muvofiq keladigan an‘anaviy talab ekanini esiga olmaydi. Natijada fojia ro‘y beradi aka-uka bir-biridan tan olmaslik darajasida yiroqlashadilar”<sup>2</sup>. Aka-uka va ularning oilalaridagi munosabatlarning keskinlashishini mulkiy differentsiatsiya, yoki patriarxal urf-odatlarining, tartiblarning buzilishi deb talqin etish mumkin. Qanday bo‘lmasin, dostonda o‘zbek oilasiga xos an‘analar va ulardagi o‘zgarishlar o‘zifodasini topgan.

<sup>1</sup> Hayitmetov A. O‘g‘itlar olami // Oila bir gulshanki... - Toshkent: O‘qituvchi, 1996. 22-23 b.

<sup>2</sup> Nishonova O. O‘zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati. -Toshkent: Fan, 2013. 32 b.



O‘zbek oilalaridagi munosabatlar ierarxiyaga qurilgani bilan ajralib turadi. Tabiiyki, bu ierarxiya boshida oila boshlig‘i, odatda erkak turadi. Avlodlararo munosabatlar ham ushbu ierarxiyaga bo‘yinsunadi. Xalq pedagogikasi ota-onani oiladagi ierarxik munosabatlarning bosh sub‘ektlari sifatida ularga itoat va hurmatni quyidagicha talqin qiladi: “Aziz bolalar, ota-onangizni hurmat qiling. Ota-onani hurmat qilishingiz ular sizning qoshingizda doimo muhtaram ekanliklaridan dalolat beradi. Ota-onangizga faqat yoshlari sizlardan katta bo‘lganlari uchun emas, balki chaqoloqlik vaqtingizdan to yigitlik vaqtingizgacha sizlarni tarbiyalab, yedirib, kiydirib maktabga yuborganlari va har narsangizga diqqat fido etganlari uchun hurmat qilishga, ularga bo‘ysunishga majbursiz. Umringizning har kuni, har soatida sizlarga qilgan xizmatlarini esingizga tushiring. Ota-onaga hurmat butun umringiz bo‘yicha, eng baxtli, shodlik yoki qayg‘ulik vaqtlaringizda ham davom etishi lozim. Ularga ochiq yuz, shirin so‘z va muloyimlik bilan so‘zlang, sizlarga qilgan yaxshilik va fidokorliklarni aslo unutmang. Ba’zi vaqt qarilik ularning kayfiyatlarini buzadi, xafa, ko‘ngilsiz bo‘lib yuradilar. Mana shunday vaqtlarda ularni ovuting, ko‘ngillarini ko‘taring, kuldirishga harakat qiling. Ularning buyurgan xizmatlarini bo‘yin tovlamay ado eting”<sup>3</sup>

Oiladagi ierarxiya munosabatlari rasmiy tashkilotlardagi ierarxiyadan farq qiladi. Bu munosabatlar o‘zaro mehr muhabbat va hurmat muhitini shakllantirishga, kattani hurmat va kichikni izzat qilish tamoyiliga, ezgu niyatlarga va avlodlararo munosabatlarning davomiyligini ta’minlashga quriladi. “Oiladagi ota-onalar, bobo va buvi, hattoki katta yoshdagi akalar hamda singillarning o‘zaro

<sup>3</sup> O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. - Toshkent: Fan, 1996. 42 b.  
SJIF:5.219



munosabatlari oilaning boshlang'ich jamoa sifatidagi hayot tarzini va o'ziga xoslikni vujudga keltiradi. Yaxshi, maqsadga muvofiq o'zaro munosabatlar va otaonalarning bolalari bilan ma'naviy yaqinligi, bolalarining ichki dunyosini sezish, qiziqishlari va intilishlarini oldindan bilishi, gamxo'rlik qilishi va boshqalar oilaviy munosabatlarni tashkil etishning, tarbiyaning muhim xususiyatlaridir<sup>4</sup>. Umuman, islomiy qadriyatlarda otani ulug'lash tangrini ulug'lash tarzida talqin qilinadi. Uning oldida gunoh qilish Tangri oldida gunoh qilish bilan barobardir<sup>5</sup>. Demak, Sharqona an'anaga muvofiq oila ierarik munosabatlar oila boshlig'i yo'riqlari va talablariga muvofiq tashkil etiladi. Ammo bu rahbarlik oilani mustahkamlash, uning birligini, osoyishtaligini, farovonligini ta'minlash, farzandlarni tarbiyalash ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Bu o'rinda milliy an'nalarning umuminsoniy xarakteri ko'zga tashlanadi. Hatto oilada otaning roli katta, hal qiluvchi xususiyatga ega bo'lsa ham, ular oilaning boshqa a'zolari huquq va tengliklariga raxna solmaydi, ularni tahqirlamaydi.

Ijtimoiy makonda oila mavqeini mustahkamlash deganda biz oila a'zolarining bir-birining obro'si, huquq va erkinliklari, sha'nini himoya qilish orqali oilasining yaxlitligini, shu oilaga xos bo'lgan turmush tarzini, ierarxik tizimni, an'nalarni saqlashga qaratilgan xatti-harakatlarni nazarda tutamiz. Oila a'zolari yakka tarzda, har kim o'z qiziqishi, intilishi va kasb kori bilan yashasa-da, har bir oilaning o'ziga xos, umumiy oilaviy qadriyatlari bo'ladi. Oila a'zolari o'zining shu oilaga mansubligini, shu oila a'zosi ekanini ana shu umumiy oilaviy qadriyatlarga munosabati orqali namoyon etadi. Masalan, oiladagi ierarxik

<sup>4</sup> O'sha asar. 86 b.

<sup>5</sup> Alibekov S.A. Ma'naviyatimiz durdonalari. - Toshkent: O'zDJTU, 2003. 60 b.



munosabatlar goh yumshoq, goh qattiq talablarga, goho esa mutlaq ochiq demokratik tamoyillarga, ba'zida esa vaziyatga qarab o'zgarib turadigan, palliativ xususiyatga ega munosabatlarga qurilishi mumkin. Keyingi yillarda oilada ayol mavqeining oshib borayotgani kuzatiladi, bu esa oldingi patriarxal munosabatlarning matriarxal munosabatlarga joy berayotganidan darak beradi. Feministik harakatlar ijtimoiy taraqqiyotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda, bu o'rinda zamonaviylik va an'anaviylik, konservatizm va traditsionalizm o'rtasida kurash muqarrardir. Aytmoqchi bo'lgan fikrimiz shundaki, oila a'zolari, qanday qarashlarni, fikrlarni qo'llab-quvvatlashmasin, umumiy oilaviy qadriyatga xavf tug'ilganida yoki shu oila e'zozlaydigan an'analarga tashqi tazyiq paydo bo'lganida darrov birlashadilar va xavfni bartaraf etishga intiladilar. Bu uzoq asrlar davomida shakllangan etnik instinkdir. Hech bir xalq, millat o'z sha'ni, huquq va erkinliklarining toptalishiga jim qarab turolmaydi, u zimdan bo'lsada, zo'ravondan qutulish paytini poylab, kutib yuradi. Oila ham shunday instinkt bilan yashaydi.

Oiladynamik institut bo'lgani sababli unda differentsiatsiya bo'lishi tabiiy holdir. Bu o'rinda biz differentsiatsiya deganda oiladan yangi oilalarning ajralib chiqishini nazarda tutamiz. Ko'p avlodli oilalarda bu jarayon sodir bo'lishi tabiiy holdir. Sotsiologik kuzatishlar ko'rsatadiki, uchgacha bo'lgan farzandlarga ega oila sub'ektlari asosan 18-29 yoshlardagi yoshlardir. Uch va undan ortiq farzandlar ko'rishni faqat katta va keksa istaydi. Ko'p bolali bo'lishni istovchi oilalar kamayib bormoqda<sup>6</sup>.

O'zimizning "Oilangiz necha avlodli?" degan savolimizga respondentlarning 59 % uch (bobo-momo, er-xotin va ularning oila qurmagan

<sup>6</sup> Qarang: Ubaydullaeva R.A. Semya v Uzbekistane. - Toshkent: 2012. S.65.  
SJIF:5.219



farzandlari), 29 % ikki (er-xotin va ularning oila qurmagan farzandlari), 3 % to‘rt (katta bobo-katta momo, bobo-momo, er-xotin va ularning oila qurmagan farzandlari) va 2 % bir (er-xotin) avlodli, deb javob beradi. Javoblardan ma‘lum bo‘ladiki, bugungi oilalar asosan ikki uch avlodlidir. To‘rt avlodli oilalar ko‘proq qishloq joylarida, katta oila sifatida, bir va ikki avlodli oilalar esa asosan shaharlarda uchraydi. Zamonaviy ko‘p qavatli uylarning ko‘payotgani oilalardagi avlodlararo munosabatlarga ham ta‘sir etayotgani kuzatiladi. Chamasi, bundan keyin ikki avlodli oilalar soni yanada oshadi.

Konfederatsiya yangi, mustaqil oila qurganlarning ota-onasi bilan o‘rnatadigan aloqalarini nazarda tutadi. Bunday oilalar mustaqil xo‘jalik yuritishsada, ma‘naviy ruhiy jihatdan ota-onalariga bog‘liqdirlar. Shu sababli ular ota-onalaridan uzoqqa ketmaslikka, ular bilan aloqalarini uzmaslikka intiladilar. Ota-ona xonadoni, undagi an‘analar yangi oilalar uchun ibrat maktabi, doimo namuna, ularni o‘z atrofida birlashtirib, bir birlariga yaqin qilib turadigan markazdir. Uning farzandlari oilasiga ta‘siri koordinatsiya xususiyatiga ega. Aslida bunday konfederativ munosabatlar o‘zbek oilalariga umuminsoniy xususiyatlar xosligidan darak beradi.

Avlodlararo munosabatlarni asrash va e‘zozlash oilaviy etnoa‘nalarning mohiyatini tashkil etadi, bunday munosabatlarsiz oila institutining bo‘lishi mumkin emas. Ammo bu munosabatlarning dinamikasi, sarhadlari va ulardagi transformatsiya jarayonlari oilalarning necha avlodliligi bilan bog‘liqdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

